



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

barmoq bilan urib sadolanishi.

“V” yuqoriga bosh barmoq u bilan sadolash “II” panja “B” bosh barmoq. Zarblarning asosiylari besh xil bo‘ladi: 2 ta katta zarb, 2 ta kichik zarb va tanovor zarbi.

Dutorchilar orasida “dutor chalish uchun dutorda qalb bo‘lishi kerak” degan qadimdan qolgan naql bor. Shogirdlik ta’limini egallab mustaqil ijrochilik faoliyatini boshlagan har bir dutorchi bu naqlni esda tutishi lozim. Dutor chalish an’anasiga qat’iy rioya qilib ijrochilik mahoratini an’anaviy maktab izidan olib borgan dutorchigina shinavandalar qalbini o‘ziga rom qilishi mumkin.

Ustoz – ruhshunos, dono murabbiy, yetuk ijrochi bo‘lmog‘i darkor. Bundan tashqari u o‘zining axloqi, estetik sifatlari bilan faqat ijrochigina emas, balki bulgusi o‘rinbosarni tarbiyalaydi. Dutorchi shogirdni tarbiyalash degani bo‘lg‘usi ustozni tarbiyalash demakdir. Ustoz - shogird munosabatlari masalasi qadimgi ustozlardan og‘zaki uslub an’analarning uzviy davomi bo‘lib, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.

An’anaviy dutor ijrochiligining kelajagi uchun kadriyat-larimiz qayta tiklanayotgan vaqtda qanday qo‘llanilishiga qarab belgilanadi. Dutorchini ustozini o‘rgatish uslubini an’analari umuminsoniy va umumbashariy tarbiya bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilganidir. Bu an’alar yuksak badiiy natijalarga erishish uchun ishlatilayotgan mustaqil yaratuvchi ijodkor shaxsini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ustozining eng muhim vazifalaridan biri shogirdni badiiy - musiqiy asarlarni mustaqil tahlil qilish va ularni xalqning estetik talablari darajasida ijro etishga o‘rgatishdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. 1997. – B.384.
2. Asilov M.A., Vasilyev F.N.. Dutor darsligi. – T.: O‘qituvchi. 1977. – B 118.
3. Беляев В.Н. Музыкальные инструменты Узбекистана. – М., 1986.
4. Vizgo T.S. O‘rta Osiyo cholg‘ulari. Tarixiy ocherk. – M., 1980.
5. Jomiy A. Musiqa haqida risola. – T., 1960.
6. Karomatov F. O‘zbek cholg‘u musiqasi. – T.: Meros. 1972.
7. Rajabiy Y. O‘zbek xalq musiqasi. I tom. – T.: Adabiyot va san’at. 1955.
8. Rasultoyev J.K. O‘zbek dutor ijrochiligi. – T.: O‘qituvchi. 1997.
9. Xudoyev G‘.M. G‘ijjak cholg‘usi ijrochilik an’analari. – T.: Muharrir. 2014. – B.164.

“BAXSHI” MUSIQALI TEATRI

O. OMONJONOVA,

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi

Ilmiy rahbar: **Ch.E. ERGASHEVA, dotsent, PhD.**

Doston – o‘zbek xalq ijodi va mumtoz musiqasining yirik epik janri bo‘lib o‘ziga xos mavqeyi, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik

kechinmalar esa sher va musiqa orqali ifodalanadi. Xalqning asrlar davomida to'plagan tajribalari, voqelikka xissiy munosabati badiiy matndag she'riy misralar, nag'ma va aytimlarda badiiy ifoda etilgan. Shu bilan birga, dostonchining bevosita tinglovchilar davrasida to'lib toshishi, ijrochining tinglovchilar bilan jonli muloqotda bo'lishi, badihago'ylik mahoratiga tayanishi doston ijrochilgida muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonlar baxshi (shoir)lar tomonidan cholg'u jo'ligida (ko'pincha do'mbira) ijro etiladi. Ijrochi-baxshi(shoir) cholg'u chertishni puxta o'zlashtirgan sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytadigan xonanda, matnlarni badihago'ylik asosida bir zumda to'qib keta oladigan iqtidorli shoir, dostonda hikoya qilinayotgan voqealarni mahorat bilan tinglovchiga yetkaza oladigan so'z ustasi, asar mazmunini harakat va mimika orqali ifodalovchi aktyor hamdir. Hajman yirik bo'lgan dostonlar baxshilardan improvizatsiya va musiqiy nazmiy qobiliyatni, so'zlash mahoratini talab etadi [1,3-4-betlar).

Hozirgi kunda mamlakatimizda baxshichilik va dostonchilik san'ati namunalarini asrab avaylash, rivojlantirish, keng targ'ib qilish hamda madaniy va ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 14-maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori o'zbek baxshichilik san'ati tarixida unutilmas iz qoldirdi. Shuningdek, 2019-yil Termez shaxrida o'tkazilgan "Xalqaro baxshichilik san'ati" butunjahon hamjamiyatini baxshichilikka bo'lgan qiziqishlarini va e'tiborini tobora kuchaytirib, va ushbu festivalni har ikki yilda o'tkazish an'ana tusiga kirdi. 2021-yil 16- dekabrda YUNESKOning Nomoddiy madaniy me'rosini asrash hukumatlararo qo'mitasi tomonidan Baxshichilik san'ati insoniyatning nomoddiy mdaniy me'rosi representativ ro'yxatiga kiritildi. Termez shaxrida baxshichilik maktablari, san'at maktablari, O'zMMSI va O'zDSMI oliy o'quv yurtlarida dostonchilik va baxshichilik yo'nalishlari tashkil qilindi. Baxshilarning ijodlari audio va videoyozuvlarga yozilib, xalq jamoatchiligida keng targ'ib qilish ishlari yo'lga qo'yildi.

Baxshilarga qaratilgan e'tibordan ushbu san'at shinavandalari va ijodkorlarining o'z ishiga bo'lgan ishtiyoqi yanada ortdi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri repertuaridan o'rin olgan "Baxshi" musiqali spektakli haqida ta'kidlash joiz.

"Baxshi" musiqali dramasi Nafas Shodmonov asari asosida yozilgan bo'lib, spektakl musiqasi Olim Komiljonov tomonidan bastalangan. Ushbu asar Shomurod Baxshi Tog'ayev hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Spektaklda o'zbek xalqining milliy an'analari, xalqning kuy qo'shiqlari, liboslari va o'ziga xos milliylik muhiti mavjud. Sahna dekoratsiyasida o'tovning joylashganligi spektaklga yanada ko'rk bag'ishlaydi.

Musiqali dramaning qisqacha mazmuni:

Tog'ay ismli baxshi oilasi bilan baxtli hayot kechiradi. Kichik o'g'lining tug'ilishi munosabati bilan oila davrasida qo'shiqlar kuylashadi, baxshi do'mbira sozida dostonlar ijro qiladi va o'yin kulgi avjiga chiqadi. Baxshining ovozi eshitib davraga kommunistlar kirib kelishadi va baxshiga diniy marosim o'tkazish,

insonlarni noqonuniy yig'ib kommunizmga qarshi harakatga boshlash aybini qo'yishadi. Baxshi Tog'ay ayoli va ikki farzandi bilan Sibirga surgun qilinadi. Kasallik tufayli ayoli vafot etib, ikki farzandini o'zi voyaga yetkazadi. Yillar o'tgandan so'ng farzandlari katta bo'lishadi. Ikkinchi jahon urushi boshlangani sababli Tog'ay Baxshi urushga ketadi va farzandlarini o'z yurtlariga borishini tayinlaydi. Baxshining farzandlari o'z yurtlariga, qarindosh urug'larining yoniga qaytishadi. Oilaga yana xursandchilik qaytadi. Lekin Baxshining o'g'li Shonazarning bu yerlarda yurishi dushmanklarning ko'ziga yomon ko'rinadi. SHonazarning ovozi xuddi otasinikidek shirali ekanligini payqagan momosi uni uzoq qishloqda yashovchi Shoir (Baxshi) ga shogirdlikka yuboradi. Shonazar qishloq raisini qizini sevib qoladi va shu qizga uylanadi. Yillar o'tgandan so'ng u dong'i ketgan mashxur baxshiga aylanadi va "Xalq baxshisi" unvoniga sazovor bo'ladi.

Spektaklning boshlanishi Tog'ay Baxshining oilasi davrasida xursandchiligi, yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yish va qutlash jarayonlari bilan boshlanadi. Sahnadagi ayollarning liboslari ham milliylikni yaqqol ko'rsatib beradigan tarzda bo'lganligi spektaklga o'zgacha ruh bag'ishlaydi:

Baxshi do'mbira cholg'usini chalib xor bilan birgalikda yuqori kayfiyatga ega bo'lgan sho'x qo'shiqni kuylaydi. Melodiya karakter jihatdan yorqin, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarining an'anaviy musiqasi ritmi va ohangini sezish mumkin. Orkestrda garmoniyalarning va kuyning milliy cholg'ularda yangrashi kuy fakturasi va eshutilishiga yangicha tus bergan:



Ushbu melodiyaning ritmi asar davomida takrorlanadi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi:

Chiq di Nav ro'z ning qu yoshi...

O'z be gim ning kek sa yos shi

Spektaklda quvnoq kuy qo‘shiqlar yagragandan so‘ng, salbiy qaxramon Mekkentosh ismli kommunist, bir necha kommunizm askarlarini olib keladi va Tog‘ay Baxshiga ayblar qo‘yib, Sibirga surgun qildiradi. Buni eshitgan Tog‘ayning otasi askarlarga qattiq qarshilik ko‘rsatadi va askarlar tomonidan jarohatlanib o‘sha yerning o‘zida vafot etadi. Orketsrda minor ladida mungli motam leytmotivi yangraydi. Tog‘ayning momosi, ayollar va xor tomonidan, orkestr jo‘rligida aza qo‘shig‘i “Voy bolam” ochiq ovozda kuylanadi:



Bunda kompozitor azaldan mavjud bo‘lgan aza va yig‘i so‘zlarini notaga olganligini yaqqol ko‘rish mumkin.

Musiqali spektaklning asosiy urg‘u qaratilgan qismi bu Tog‘ay baxshining do‘mbira sozida ko‘p asarlarni o‘zi ijro qilishidir. Alpomish dostoni, milliy kuy qo‘shiqlaridan parchalar va cholg‘u kuylarini ham maromiga yetkazib saxnada ijro qilinganligidir. Bu spektaklga yanada milliylik va tabiiylik muhitini yaratib, bevosita tomoshabinni o‘ziga jalb qilib, baxshichilik san‘ati namunalaridan bahramand bo‘lishiga imkoniyat yaratadi:

Baxshi va uning oilasi Sibirga surgun qilingandan so‘ng, u yerda yashash hayot tarzi ko‘rsatilgan. Sibir sahnasida ham baxshi qo‘shiqlar kuylaydi, Tojinisoning (baxshining ayoli) alla hirgoyi qilishi, alladagi mazmuna va yoqimli ohangning bolaga ta‘sirini sezib ijro qilinganligi yanada xalq an‘analarini jozibali va o‘lmas ekanligini ko‘rsatadi.

Tojiniso vafot etgandan so‘ng baxshi fojiviy va dardli ohangda ariya kuylaydi. Oradan yillar o‘tgandan so‘ng farzandlari ulg‘ayadi, ikkinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan baxshi urushga ketadi farzandlari esa o‘z yurtlariga qaytib kelishadi. Baxshi o‘z farzandlariga do‘mbira cholg‘usini bergan bo‘ladi.

Surxon elida yana shodiyonalar boshlanadi. Nabiralarini qaytganini ko‘rgan Katta momo o‘zida yo‘q sevinadi. Baxshining o‘g‘li Shonazardan do‘mbira chalib qo‘shiq kuylashni so‘raydi, shunda nabira rus sovet qo‘shig‘i “Katyusha”ni kuylaydi va momo xuddi farzandi Tog‘ay Baxshining ovozini eshitganini ta‘kidlaydi. Shonazardan qarindoshlari milliy kuylarni aytishni so‘raydi, yosh va do‘mbira chalishga uquvi bo‘lmagan Shonazar milliy kuylar kuylay olmasligini aytadi. Qarindoshlari qattiq majburlaganlaridan so‘ng qo‘liga do‘mbirani ushlaydi va kuylashga hozirlik ko‘radi. Shu mahal ko‘ziga otasi Tog‘ay baxshi ko‘rinadi va “Kuyla bolam”, “Guldana” qo‘shig‘ini kuyla, Guldana ismini asos qilib olib, yon atrofingdagi barcha qizlarni chiroyini Guldana qiyoslab, chin yurakdan uning go‘zalligi va ta‘rifini ohanglar bilan kuylaysan” deb aytadi. Shu payt Shonazar “Guldana” qo‘shig‘ini kuylashni boshlaydi:





Qo'shiqni yakunlagandan so'ng Qishloq raisi kelib Shonazarni bu yerda qoldirish mumkin emasligini aytadi. Bir qancha urinishlardan so'ng qo'shni qishloqdagi mashhur baxshi (shoir)ga shogirdlikka Shonazarni yuborishadi. Shu bilan bir qatorda Shonazar Qishloq raisining qiziga muhabbat qo'yadi va unga uylanadi. Yillar o'tgandan so'ng Shonazar Baxshi dostonchilik va baxshichilik maktabida o'z o'rniga ega bo'lgan baxshilar qatoriga kiradi (o'z repertuaridan bir necha asarlar kuylaydi). Baxshilar va ularning ijodlariga bo'lgan e'tibor tufayli Shonazar Baxshi Tog'ayev Prezident tomonidan "O'zbekiston Xalq Baxshisi" unvoniga sazovor bo'ladi va xursandchilik bilan spektakl yuqori kayfiyatda yakunlanadi.

Spektaklning drammatizmi, qashilik va keskinliklar, ijobiy va salbiy obrazlar qisqa leytmotivlar orqali ko'rsatib o'tilganligini ham aytib o'tish joizdir.

Xulosa o'rnida, "Baxshi" spektakl tom ma'noda haqiqiy milliy musiqiy spektakl deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Milliy an'analar va qadriyatlar mujassamlashgan ushbu spektakl insonlarga ma'naviy ozuqa, qadriyatlarimizga bo'lgan yanada xurmatni oshirishiga yo'l ochib beradi. Baxshichilik ijodini yanada yoritgan ushbu spektakl Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri saxnalarida muvaffaqiyat bilan o'z chiqishlarini namoyon qilmoqda. O'ylaymanki, ushbu spektakl nafaqat o'zbek, balki, chet ellik insonlar tomonidan tomosha qilinib, ularni yanada o'zbek xalqi madaniy-ma'naviy boyliklari bilan yaqindan tanishishi va ularni o'rganish uchun juda ham tushunarli qilib ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitov Z. Doston ijrochiligi (Baxshichilik). – Toshkent. 2021.
2. Panjiyev Q. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent. 2020.
3. Safarov O. O'zbek xalqlari etnografiyasi va folklori. – Toshkent 2007.
4. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent. 2008.
5. Qo'chqorov G'. Folklor qo'shiqchiligi. – Toshkent. 2005.

XONANDALIK AMALIYOTIDA FARG'ONA – TOSHKENT MAQOM YO'LLARINING IJROCHILIK XUSUSIYATLARI

N.M. BEKBOYEVA,

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqom ijrochiligi, xususan maqom xonandalik amaliyotida ovoz ishlatish xususiyatlari haqida so'z yurutilib, aynan Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari tarkibiga kiruvchi Miskinlar ijrochiligiga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, maqom, hofiz, ovoz, tovush, miskin, Nasr, Saraxbor, Talqin, ishkami, tik ovoz.

Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. IX-XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar va tarixiy-adabiy manbalarning ko'pchiligida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Maqomlar Sharq xalqlari musiqasining asosini tashkil